

## **MUNDARIJA:**

Kirish.....

### **I BOB. Hozirgi xitoy tilida fitonimik terminologiyaning nazariy asoslari.....**

1.1. Xitoy tilida daraxt nomlarini anglatuvchi fitonimlarning yasash usuluri.....

1.2. Dorivor o‘simliklar va ularning semantik ma’nolarini izohlash.....

### **II BOB. Xitoy tilidagi buta va o‘simlik nomlarining leksik- semantik tahlili...**

2.1. Gul nomlari va ularni ifoda etuvchi so‘zlarning semantik tahlili.....

2.2. Xitoy o‘simliklarning simbolikasi.....

Xulosa.....

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.....

## **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taraqqiyotimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab olishda ta’limning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatar ekan, quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tgan edilar:

“ Milliy tiklanish yo‘li yuqori savodxonlik, yuksak madaniyat orqali o‘tadi. Shuning uchun ham ma’lumot darajasi va professional tayyorgarlik darajasi XXI asr arafasida bizning ijtimoiy rivojlanishimizning o‘lchovi bo‘lib qolmog‘I kerak. Bu – islohotlarning belgilangan yo‘ldan borishining va muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng yaxshi kafolatidir. Bu – sarflangan mablag‘lardan vaqti kelib eng ko‘p foyda olinadigan yo‘nalishdir <sup>1</sup>”.

Yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni amalga muvaffaqiyatli oshirishda horijiy tillarni o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Xalqaro maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga intilayotgan davlatlar kadrlari uchun horijiy tillarni mukammal bilish davr nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi.

1992 – yil O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi bilan diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Hozirgi kunda ham bu aloqalar yildan yilga rivojlanib bormoqda. Bunda esa ya’ni Xitoy bilan manfaatli aloqalar negizida Xitoy tili yotadi. Shu munosabat bilan Xitoy tilini chuqur o‘rganish va kuchli mutahassislarni tayyorlash Xitoy filologiyasiga oid dolzarb masalalarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham so‘nggi 10 yilda Xitoy Xalq Respublikasida Xitoy tilini o‘rganib qaytayotgan talabalar soni yildan yilga oshib bormoqda.

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi kunda Xitoy tilini chuqur o‘rganish, Xitoy tilidagi adabiyotni tahlil va tarjima qilish bo‘yicha bir qator ishlar amalga

---

<sup>1</sup> Karimov I.A.. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent. “ O‘zbekiston ”, 1995 yil – 234 bet.

oshirilmoqdaki, bu kabi ishlar o‘zining ko‘lami bilan alohida ajralib turadi. Xitoy Xalq Respublikasidagi fitonimik terminlar<sup>2</sup>, ularning izohi va semantik ma’nolari

Tarjima jarayonida tarjimonlarga va farmakologiya sohasi bilan bevosita ishlovchilar uchun qo‘l kelishi tabiiydir. Ana shu nuqtai nazardan fitonimik terminlar, ularning qo‘llanilishi va semantik ma’nolarini o‘rganish, ushbu terminlar bilan bog‘liq simbolika va tarixiy voqea hodisalarni o‘rganish, shu hudud etnosi va tarixiga oid manbalarni yetkazib berishi bilan mavzuimizning dolzarbligi belgilanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** “ Xitoy tilida o‘simliklar nomlarini anglatadigan so‘zlarning semantik tahlili ” mavzusiga bag‘ishlangan bitiruv malakaviy ishimizning **maqsadi** Xitoy Xalq Respublikasi hududidagi fitonimik atamalar ( fitonimlar ) ning leksik semantik tahlil qilish va ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi **vazifalarni** belgilab oldik:

Hozirgi Xitoy tilida fitonimik terminologiyaning nazariy asoslarini o‘rganish.

Xitoy tilida daraxt nomlarini anglatuvchi fitonimlarning yasash usularini ko‘rib chiqish va tahlil qilish.

Dorivor o‘simliklar va ularning semantik ma’nolarini izohlash.

Xitoy tilidagi buta va o‘simlik nomlarining leksik semantik tahlilini amalga oshirish.

Gul nomlari va ularni ifoda etuvchi so‘zlarning semantik tahlilini amalga oshirish.

Xitoy madaniyati va san’atida o‘simliklarining simbolikasini o‘rganish.

**BMIning ob’ekti va predmeti.** “ Xitoy tilida o‘simliklar nomlarini anglatadigan so‘zlarning semantik tahlili ” mavzusidagi bitiruv malakaviy

---

<sup>2</sup> Fitonim tilshunoslikda “ O‘simlik nomi ” ni anglatuvchi termin.

ishimizning ob'ekti xitoy tili fitonimik terminologiyasi bo'lib, fitonimik nomlar, daraxt nomlari, o'simliklar va dorivor o'simliklar, ularning xitoy madaniyatida simvolikasi vositasi orqali o'rganish ishimizning predmeti bo'lib hisoblanadi.

**Tadqiqot manbalari.** Bitiruv malakaviy ishimizni tadqiq etishda xitoy tilidagi:

夏伟瑛。植物名译论集。北京，1990年。(Sya Veynin. Xitoycha o'simlik nomlari nomenklaturasi ocherki. Pekin 1990 y.)

朱家冉。拉汉英种子植物名。北京，1983年。(Dju Dzyajan. O'simlik nomlarining xitoycha, lotincha va inglizcha nomlanishi. Pekin 1983 y.)

马其云。中国种子植物名称总汇。青岛，2003年。(Ma Chiyun. Xitoyda oilaviy o'simliklar nomlari. Chindao 2003 y.) kabi manbalardan, shuningdek, Gorelov V.I. “Leksikologiya kitayskogo yazika”. Moskva “Prosveshenie” 1984 y.

Dragunov A.A. “Issledovaniya po grammatike sovremennogo kitayskogo yazika” Moskva 1952 y.

Polivanov Ye.D. “Grammatika sovremennogo kitayskogo yazika” Moskva Institut Vostokovedniya.

Semenas A.L. “Kopulyativniy tip svyazi v leksike sovremennogo kitayskogo yazika” Moskva 1973 y.

Semenas A.L. “Leksika kitayskogo yazika” Moskva.

Frolova O.P. “Slovoobrazovanie v terminologicheskoy leksike sovremennogo kitayskogo yazika” Novosibirsk “Nauka” 1981 y.

Xamatova A.A. “Slovoobrazovanie sovremennogo kitayskogo yazika” Vladivostok “Izd – vo Dalnevost”, 1988 y.

Karimov A.A. “ Xitoy tilining asosiy Grammatik birliklari.” 2001 y. kabi rus va o‘zbek tilidagi adabiyatlardan keng foydalanishga harakat qildik.

**Tadqiqot metodlari.** Mavzuimizni yoritishda asosan tahliliy, tavsifiy, struktur va tarixiy tahlil metodlaridan faydalandik.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** BMI materiallari xitoy tili leksikologiyasi, xitoy tili o‘simlikshunosligi ( Botanika va Biologiya ) fanlari bilan tarjima sohasida faoliyat olib boruvchila, shuningdek, dori ko‘rsatmalarini tarjima qilishda va xitoy tilini mustaqilo‘rganuvchilar uchun amaliy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ishning tarkibi va hajmi. BMI kirish,ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Birinchi bob “Hozirgi xitoy tilida fitonimik terminologiyaning nazariy asoslari” deb nomlanib, u ikki fasldan tashkil topgan. Ikkinchi bob “Xitoy tilidagi buta va o‘simlik nomlarining leksik- semantik tahlili” deb nomlanib, u ikki fasldan iborat.

Xulosada tadqiqot ishi bo‘yicha erishilgan natijalar bayoni keltirilgan. Shuningdek BMI foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

## I BOB. Hozirgi xitoy tilida fitonimik termenologiyaning nazariy asoslari

Termin grekcha *terminus* soʻzidan olingan boʻlib, **chek, chegara** degan maʼnoni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xoʻjaligi, sanʼat va madaniyat sohasiga xos soʻz hisoblanadi. Terminologiya - terminlar haqidagi taʼlimot va terminlar majmui degan maʼnolarni anglatadi. Termin soʻzi oʻrnida baʼzan atama, istiloh soʻzlarini ishlatish hollari uchray turadi. Ammo bu toʻgʻri emas.

Atama termin soʻziga nisbatan tor tashunchani ifodalaydi. Istiloh soʻzi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va meyorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri boʻlib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lugʻaviy qatlamlaridagi oʻrni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini toʻgʻri anglash imkonini beradi.

Terminologiyaga bagʻishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega boʻlgan va, asosan, nominativ funktsiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. A.Reformatskiy terminga taʼrif berar ekan, “ ... terminlar – bu maxsus soʻzlardir ” degan xulosaga keladi. A.V.Kalinin muayyan fanlar va kasbkorlikda ishlatiladigan soʻzlarni “ maxsus leksika ” deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi.

1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi.

2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi. U oʻz fikrini davom ettirib, “ Termin bilan professionalizmlar oʻrtasidagi

farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xoʻjaligi, texnikadagi tamomila rasmiy boʻlgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, koʻpincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qatʼiy, ilmiy tavsifiga ega boʻlmagan yarim rasmiy soʻzdir ”, - deydi R.Doniyorov bu fikrga eʼtirozan, Bunday qatʼiy daʼvo, aslini olganda, tilni sinfiy deb hisoblagan ayrim olimlarning qarashlari davomidir desak, xatoga yoʻl qoʻymasmiz ” deya munosabat bildiradi.

H.Jamolxonov terminga munosabatda boʻlar ekan quyidagicha yozadi:

“ Terminlar fan-texnika, adabiyot, san`at va boshqa sohlarga oid ixtisoslashgan, qo`llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: gulkosa, shona (botanikada); to`rtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi ” Qoraqalpoq tilshunosi professor Esemurat Berdimuratov “ Qaraqalpaq Terminologiyasi ” (1989) kitobida termin va professionalizm haqida qarashlarini quyidagicha bayon qiladi: *“Haqiqatinda termin menen professionalliq so`z birligi ajiralip turadi. Professionalliq so`zler sol kasip tarawinda tariyxiy dawirler dawaminda payda bolg`an, sol kasiptin` talabina xizmet etedi, sol ortaliqua jiyyi qollaniladi... Al terminler bolsa, belgili turmis tarawinda, aytayiq, ilim, texnika, ma`deniyat, ja`miyetlik–siyasiy turmis, sanaat ha`m awil xojalig`i h.t.b boyinsha ug`imlardi ataydi ham definitivlik jaqtan aniqlaydi, yag`niy ug`imdi tusindiredi. Terminler rasmiylestirilgen til birligi. Olar barliq waqitta ja`miyetlik baqlawda boladi» .*

Terminlarning ifoda plani so`zga (hujayra, to`qima ) yoki turg`un birikmaga (o`q ildiz, popuk ildiz) teng bo`ladi. Haqiqatan ham, terminlarga munosabatda soha mutaxassislari va terminshunos olimlar hamkorlikda ish olib borib, o`zgartilayotgan yoki alamashtirilayotgan terminlarning sodda, ixcham, eng muhimi, xalqqa tushunarli bo`lishini ta`minlash ishiga bosh qo`shishlari ayni muddao bo`lur edi. Har bir xalqning asriy tajribasini o`zida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, ularni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga etkazish hozirgi fan oldida, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi<sup>3</sup>.

Shu nuqtai nazardan qaraganda Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, “ Xalqning milliy madaniyati va o`ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo`lmish o`zbek tili ”<sup>4</sup> da mavjud bo`lgan so`z va iboralarni, atamalar va leksik boyliklarni o`rganish hamda lisoniy meros sifatida ilmiy tahlilini olib borish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir.

---

<sup>3</sup> O`zbek tili terminologiyasi. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlay pedagogika instituti. Ma`ruzalar matni. Nukus, 2012 yil, 15 bet.

<sup>4</sup> Karimov I.A. O`zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: O`zbekiston, 1999. – B. 19.

### ***Turli kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan o'simliklar nomlari***

地榆 diyu (ruscha Кровохлебка) o'simligi o'z nomini yer ustidagi qismidan olgan bo'lib: bu o'simlik dizentiriya va yarali katit kasalligida qon to'xtatish uchun qo'llaniladi. 五木香 Wumuxiang (ruscha Девясил) o'simligining nomlanishida to'qqiz (9) sonining sehri aks ettirilgan: xalq tabobatida berilishicha, bu o'simlik to'qqizta lohaslikdan qutqarak ekan. Xitoy tilida taqqoslaganda: 黄耆 huangqi (ruscha Астрагал) o'simligi – so'zma so'z tarjima qilganda "sariq dohiy" (bu dorivor o'simlik inson uchun foydali o'simliklarning biridir, o'ziga yarasha dohiy ma'nosidagi dorivor o'simliklarning "yetakchisi" hisoblanadi) ma'nosini beradi. 沙参 (ruscha Бубенчик) – so'zma so'z tarjima qilganda "qumdagi jenshen" (davolash xususiyatiga ko'ra jenshenga o'xshab ketadi) ma'nosini beradi.

### ***Maishiy – xo'jalik ishlarida qo'llaniladigan o'simliklar nomlari***

独行菜 duxingcai o'simligi (ruscha Клоповник) kanalarni yo'qotishda qo'llaniladi. Xitoy tilida taqqoslanda: 蚊子草 Wenzhi cao (ruscha Лабаник) o'simligi – so'zma so'z tarjima qilganda "chivinga qarshi o't" degan ma'noni bildiradi (o'simlik to'g'ri qo'llanilganda chivinlarni haydash xususiyatiga ega).

### ***Temporal mazmuniylik***

O'simliklarning kam sonli miqdori gullash va meva berish vaqtini konkretlashtirish xususiyatiga ega. Bizning hisob-kitobimizga ko'ra, 287 xitoycha fitonimlardan 4 tasi temporal mazmuniylikni ifoda etadi (2 %).

Masalan, 喜冬植物 (ruscha Зимоллюбка) o'simligi o'z nomini vaqt oralig'ida o'sib borishi bilan izohlanadi. Xitoy tilida taqqoslanda: 报春花 Baochun hua (ruscha Первоцвет) o'simligi – so'zma so'z tarjima qilganda "to'rg'ay" (bu nom o'simlikning ilk gullashi to'rg'ayning birinchi sayrashi bilan to'g'ri kelishidan kelib chiqqan) ma'noni bildiradi.

Shu bilan, o'simliklar nomlarining metaforik mazmuni xitoy tilida quyidagi fitonimlarning paydo bo'lishini taqozo etdi:

1. Xitoy tilida eng ko'p qo'llaniladigan turi somatik (ya'ni barcha metaforik mazmun birliklarining 83.6 %) tur hisoblanadi. Xitoy tilida eng kam foizli fitonimik terminlar temporal tipdagi leksik birliklardir (ya'ni 2 %). Xitoy fitonimik terminlarning asosida kognitiv jarayonlarni ifodalovchi uyg'unlik ifodalanadi.

2. Xitoy tilida o'simlik terminlaridagi farqlar, qisman fitonimlarning funksional tipdagi terminlarida kuzatish mumkin: xitoy tilida bu ko'rsatkich 5,7 % tashkil etadi. Bu terminlarning funksional mazmuniyligi eng avvalo, xitoy an'anaviy tabobatida muhim ahamiyatga ega dorivor o'simliklar uchun xosdir.

3. Qadimda odamlar yangi topilgan o'simliklarga oson eslab qolinishi uchun hayvon nomlarini berishgan. Shunday qilib, fitonimlarning paydo bo'lishida somatik tipdagi metaforik mazmuniyligida hayvon nomlari aks etadi: sichqon, echki, ot, quyon, ho'kiz; 老鼠爪 (ruscha Каперцы) – o'simligi – so'zma so'z tarjima qilganda "sichqon panjasi" (o'simlikning ildizi tekis bo'lib, undan chiqib turgan ko'p sonli poyalar sichqon panjasini eslatadi) ma'nosini beradi. 马齿苋 Machi xian (ruscha Портулак) – o'simligi – so'zma so'z tarjima qilganda "ot tishlari" (ot tishiga o'xshagan teskari-oval belkurak shakldagi bargli o'simlik) ma'nosini beradi.

4. Xitoy tilidagi fitonimik tizimning 5,6 % lotin tilidan kirib kelgan. Bu xitoy leksikasining o'ziga xos bir ko'rinishidir: xitoy an'anaviy madaniyatiga xos tarzda o'zlashtirish 6.6 % tashkil etadi.

Rang. Fitonimlar asosining aksariyat qismida til bo'yicha tasniflash yotadi. Masalan, qora mevali o'simlik qarg'ani eslatgani uchun (ruscha Воронеж) deb nomlanadi. 向日葵 Xiangri kui o'simligi (ruscha Солнцецвет) gullarining quyoshga o'xshash sariq rangda ekanligi bilan izohlanadi. 侧金盏花 cijin ranhua o'simligi (ruscha Горлицев) o'zining tashqi ko'rinishiga qarab o'z nomini olgan, ya'ni, bu o'simlikning barglari yonayotgan olovni eslatadigan och qizil rangda bo'ladi. 百刺 o'simligi (ruscha Селитрянкa) o'zining selitranga o'xshash qoraroq mevalari uchun shunday nomlangan. O'xshash semantik mazmuniylik quyidagi

xitoycha nomlarda ham bor: 火棘 huoji (ruscha Пираканта) o‘simligi – so‘zma so‘z tarjima qilganda "yong‘in" (tashqi ranglari olovga o‘xshagani uchun) deb tarjima qilinadi;

A.A.Potebnya “ keyingi ma’no ” deb atagan va “ u tilshunoslikning o‘rganish ob`ektiga kirmaydi, uni boshqa fanlar o‘rganadi ”<sup>5</sup> deb ko‘rsatilgan terminologik leksika uzoq davrlargacha alohida nominativ birlik, atama sifatida tilshunoslikda tadqiq qilinmadi. Tilshunoslik fani rivojlanib, o‘z tadqiqot doirasini kengaytirgan sayin terminlarni o‘rganish uning eng muhim va tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Hozirgi davrda terminlarni o‘rganish tilshunoslikning alohida sohasini – terminologiyani shakllantirdi. Ammo shuni ham aytish o‘rinliki, bu jarayonda ruscha va rus tili orqali kirib kelgan terminlarni o‘rinsiz, sun`iy ravishda yangi yasalmalar yoki arab va fors-tojikcha so‘zlar bilan almashtirish hollari ham kuzatiladi. *Masalan, bankrot– sinish, buxgalter – hisobchi, gazeta – ro‘znoma, deputat – noib (xalq noibi), jurnal – majalla (jarida, oybitik, oynoma), institut – oliygoh, (ta’limgoh), klub -tomashagoh (tadbirgoh), kompensatsiya – tovon, medal – nishon, fakultet –kulliyot, kurs – bosqich, fonetika – tovushshunoslik, sinonim – ma’nodosh, omonim – shakldosh, antonim – zid ma’noli* va h. Ma’lum bir termini o‘zgartirish uchun uning keyingi taqdirini ham hisobga olish kerak – ku . *Kurs* terminini *bosqich* deb oladigan bo‘lsak, kurs asosidan hosil qilinadigan yasalmalarning taqdiri nima bo‘ladi? Unda *kursdoshni bosqichdosh, kurs ishini bosqich ishi* deyish kerakmi? Yoki *omonim* termini bilan bog‘liq *omofon, omograf, omonimiya* terminlariga nima deb nom beramiz. Achinarlisi, sinonim, omonim, antonim terminlari 5-sinf Ona tili darsligiga yuqorida aytganimizdek kiritib yuborilgan. Bunday holni ijobiy baholab bo‘lmaydi. Aksincha, u soha xodimlarini, o‘quvchini, qolaversa, xalqni chalg‘itadi. Oxir-oqibat adabiy me`yor buziladi. Shuning uchun ham terminlarni, sohalar terminologiyasini tartibga keltirish, ya’ni unifikatsiya qilish kunning dolzarb masalalaridan biridir.

---

<sup>5</sup> Potebnya A. A. Iz zapisok po russkoy grammatike. – M.: Uchpedgiz., 1958. T.I. – S. 19.

## 1.1. Xitoy tilida daraxt nomlarini anglatuvchi fitonimlarning yasalish usullari

Hozirgi zamon xitoy tilida atamalarining yasalish usullari, Soʻz yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohasi boʻlib, u yangi soʻz yasash, soʻz yasash usullari va vositalarini oʻrganadi. Tildagi soʻzlarning yasalish tarkibini hamda ularning yasalish usullarini aniqlash bu boʻlimning asosiy vazifasidir. Qanday usul bilan boʻlsada, yangi soʻz xosil qilishga soʻz yasalishi deyiladi.

Hozirgi xitoy tilida soʻz yasalishining turli usullari mavjud. Xitoy tili leksikologiyasida murakkab soʻzlar kompozitsiya, affiksatsiya, reduplikatsiya, kontraksiya kabi usullar orkali yasaladi.<sup>6</sup>

Xitoy tili leksikasidagi soʻzlarning yasalish usullarini birinchi boʻlib oʻrganib chiqqan olim Ye.D.Polivanov xisoblanadi. U xitoycha soʻzlarning tuzilmasi mavjudligini koʻrsatib bergan va xitoycha soʻz tarkibini uning morfologik tavsifi bilan bogʻlanga xarakat qilgan. Ye.D.Polivanov xitoy tilshunosligida qoʻshma soʻz yasalishi asosan soʻz qoʻshish orqali vujudga keladi degan xulosaga keladi.

**Kompozitsiya usuli** deganda umumiy tilshunoslikda bir necha (ikki va undan ortik) suz yoki negizlarning birlashuvi natijasida yangi suzlarning xosil bulishi tushuniladi.

Ikki yoki undan ortiq asos morfemalardan soʻz tuziladigan usul kompozitsiya usuli deb ataladi. Soʻz yasalishi asosan qoʻshma soʻzlarni tuzilish shaklini oʻrganadi.

Morfema grekcha *morphe* – *shakl* maʼnosini bildiruvchi tilning asosiy birliklaridan biri. Maʼlum fonetik shaklga (ifodalovchiga) aniq maʼno (ifodalanmish) teng keladigan minimal birlik sifatida boshqa shu turdagi birliklarga ajralmaydi. Morfema nutqiy matnni ikki tomonlama – tilni belgilariga ajratuvchi

---

<sup>6</sup> Горелов В.И. Лексикология китайского языка. М. “Наука”, 1974 г.

birinchi bo‘linishning (A.Martine) mahsuli sifatida o‘zi bilan muayyan bir ierarxik qatorga joylashgan va bir tomonlama formal bo‘linish sanalgan ikkinchi turdagi bo‘linishning mahsuli bo‘g‘indan farq qilishi bilan xarakterlanadi.

L.V.Shcherbaning ta’kidlashicha, tilshunoslikka “ morfema ” atamasini I.A.Boduen-Kurtene olib kirgan. U bu atama orqali so‘zning eng kichik ma’noli qismini belgilagan. Uning fikricha, uzviy bog‘liq muayyan nutq gaplarga yoki iboralarga, gaplar so‘zlarga, so‘zlar morfologik bo‘g‘inlar yoki morfemalarga, morfemalar fonemalarga bo‘linadi. U N. Krushevskiy ilmiy qarashlari tahliliga bag‘ishlangan asarida “Nutqni gaplarga, gaplarni so‘zlarga, so‘zlarning morfologik birliklarga bo‘linishiga qarshi fikr yuritish mumkindir. Ammo morfologik birlikda ( Kurtene uni “ morfema ” deb nomlaydi ) bu bo‘linish tugaydi ”<sup>7</sup>.

Xitoy tilida kompozisiya usulining 2 turdagi modeli mavjud bo‘lib, bular quyidagilardir:

1. Kompozisiya usulining atributiv modeli.
2. Kompozisiya usulining kopulyativ modeli.

**Atributiv model** – Xitoy tili leksikologiyasida atributiv modelning shakllari quyidagicha nomlanadi:

1. 偏正式 pian zheng shi – ergashtiruv alokali model.
2. 附加式 fu jia shi – bitiruv alokali model.
3. 修饰式 xiu shi shi – aniklovchi model.
4. 向心式 xiang xin shi – markazga intilma model.

Ayrim tilshunoslarning ilmiy ishlarida ushbu model aniqlanuvchi model atamasi bilan ham yuritiladi.

Atributiv model asosida murakkab so‘z yasashida odatda har ikki so‘z komponentidan birinchisi ikkinchisini (yoki aksincha) komponentni ta’riflab,

---

<sup>7</sup> Irisqulov. R. Tilshunoslika kirish. Toshkent «O‘qituvchi», 2006 yil. 83 bet.

tavsiflab keladi. Ushbu model asosida yasalgan soʻzlarda asosiy va aniqlanuvchi komponent ajratib koʻrsatiladi. Har ikki morfema orasidagi aloqa atributiv maʼnoga ega boʻlib, biri ikkinchisini aniqlab, tobe boʻlib kelganligini koʻrishimiz mumkin. Ushbuni biz bir necha koʻrinish bilan ifodalashimiz mumkin, Masalan:

板栗树 [bǎnlǐshù] – kashtan daraxti ( kashtan – bǎnlǐ + daraxti – shù )

稠李树 [chóulǐshù] – shumurt daraxti (oq, xushboʻy gulli daraxt) –  
( Shumurt – chóulǐ + daraxt – shù )

垂杨树[chuíyángshù] – majnuntol daraxti ( majnuntol – chuíyáng + daraxt – shù )

冷杉树 [lěngshānshù] – oqqaragaʼy daraxti ( oqqaragʼay – lěngshān + daraxt – shù )

柳树 [liǔshù] – tol daraxti ( tol – liǔ + daraxt – shù )

Atributiv model asosida yasalgan soʻzlarning tahlil shuni koʻrsatdiki, ushbu model xosilasi xisoblangan leksik birliklarda umumiy komponentning takrorlanishi kuzatiladi. Ushbu leksik birliklardagi takrorlanuvchi komponent boshqa murakkab soʻz tarkibida ham koʻp uchraydi.

Oʻsimlik terminlari sirasiga kiruvchi daraxtlarning nomlari ham mavjud boʻlib, ular aynan shu model asosida yasalgan leksik birliklardir. Masalan, 树 *shu* – daraxt morfemasi bir qator daraxt nomlarida takrorlanadi:

松树 [sōngshù] - qaragʼay daraxti (sōng – sosna + shù – daraxt)

桦树 [huàshù] – qayin daraxti (huà - qayin + shù – daraxt)

榆树 [yúshù] – qayragʼoch daraxti (yú – qayragʼoch + shù – daraxt)

杨树 [yángshù] – terak daraxti (yang – terak + shù – daraxt )

**Kopulyativ model** – Xitoy tili murakkab so‘z yasashda maxsuldor modellardan biri kopulyativ model xisoblanadi.

Atributiv model kabi kopulyativ model xam xitoy tilida bir necha nomlanishga egadir:

并列式 [bìnglìshì] – juft model;

并列式 [Bìnglièshì] – qo‘shma model;

连合式 [Liánhéshì] – birlashtiruvchi model

Ushbu model asosida yasalgan yangi leksik birlik murakkab birlik deb ataladi. Xitoy tilida kopulyativ modelda yasalgan leksik birliklar asosan ikki bo‘g‘inli murakkab so‘zlardir.

Xitoy tilshunoslari Chen Ayven va Yuy Pinlar kopulyativ tipdagi murakkab so‘zlarni tahlil qilar ekanlar, bu leksik birliklarning bir qismini “ zich ” tarkibga ega bo‘lgan so‘z birikmasini ifodalashini qayd etganlar.

A.L.Semenasning ta’rifiga ko‘ra, “ Ushbu model xosilasi xisoblangan leksik birliklar o‘zaro teng va qo‘shma munosabatda bo‘lib, yagona bir murakkab so‘zning tarkibidagi morfemalar semantik va sintaktik-funksional jihatdan teng bog‘langan bo‘ladi ”.

Murakkab so‘zlar komponentlari mustaqil leksik birliklardan iborat bo‘lib, zamonaviy xitoy tilida erkin muomalada foydalaniladigan so‘zlar sirasiga kiradi. Bunda ikki o‘zak morfema o‘zaro teng bog‘lanishi asosida yangi leksik birlik xosil bo‘ladi. V.I.Gorelovning e’tirofiga ko‘ra kopulyativ modelning o‘zaro teng bog‘langan morfemalarning qay yo‘sinda bog‘lanishiga ko‘ra bir necha turga ajratiladi, ya’ni jamlovchi, umulashtiruvchi, sinonimik, antonimik va aloxida olingan turlarga ajratiladi.

## 1.2. Dorivor o‘simliklar va ularning semantik ma’nolarini izohlash

Qadim zamonlardayoq Janubiy Amerika hindulari kasal bo‘lib qolgan puma (yovvoyi mushuk)lar qandaydir daraxtning po‘stlog‘ini g‘ajishini sezganlar. Hindular bu daraxt po‘stlog‘i qaynatmasi bilan bezgakdan azob chekayotgan kasal kishilarni davolab ko‘rganlar. Shu yo‘sinda xin daraxti kashf etildi (Janubiy Amerikani zabt etgan ispanlar bu daraxtni shunday deb ataganlar). Bu daraxtning po‘stlog‘idan olinadigan xinin butun dunyoda bezgakka qarshi dori sifatida ishlatiladigan bo‘ldi.

Bizning davrimizda esa maral bug‘u olimlarga yangi dorivor o‘simlik — levzeyani topishga yordam berdi. Kuz faslida bug‘ular o‘z raqibi bilan olishish maqsadida levzeyani ildizini kemiradilar. Aniqlanishicha, maral iste’mol qiladigan bu ildiz odamga ham kuch-quvvat bag‘ishlaydi.

Lekin inson hamma vaqt ham hayvon ketidan ergashmagan. U dorivor o‘simliklarni o‘zi ham qidirib topgan.

Dorivor o‘simliklarni izlash va amalda qo‘llash bundan ming yillar ilgari boshlangan. Qadimgi Misrda kasallar uchun ham, sog‘lom kishilar uchun ham har oyning uchinchi kunida kanakunjut moyini ichish rasm bo‘lgan. Qadimda uyqusizlik kasalligiga yo‘liqqan kishilar Yunoniston shaharlaridan biriga kelishgan. Bemor bu shahar aholisining ko‘knori sharbatidan tayyorlagan ichimligini ichishi bilan tez uyquga ketgan. Ertasi kuni ertalab bu musofirlar dehqonchilik ma’budasi ibodatxonasiga kelib, uyqu keltiruvchi va og‘riqni bosuvchi gulni kishilarga hadya etgani uchun ma’budaga minnatdorchilik bildirganlar. Ibodatxona kohinlari ko‘knoridan gulchambar taqib yurishgan.

Ayrim hollarda dorivor o‘simliklarni aniqlash insonga qimmatga tushgan, chunki dorivor o‘simliklar ta’sirini u dastlab o‘zida sinab ko‘rgan. Zubtutum bargi oyoqdagi yarani tuzatgan, qichitqi o‘t bargi esa kuydirgan. Bir qism limono‘t mevasi ovchiga kuni bo‘yi toliqmay hayvon ovlashga yordam beradi, mingdevona

mevasi esa kishining qo‘l-oyog‘ini tirishtirib, esi past odamga o‘xshab poyma-poy so‘zlashiga sabab bo‘ladi.

Rivoyatlarga ko‘ra, dorivor zaharli belladonna o‘simligi Shotlandiyadagi bir qishloq aholisining dushmandan qutulishiga yordam bergan. Qishloqni Daniya askarlari ishg‘ol qilgan. Ular g‘alaba sharafiga pivo ichib, g‘oliblikdan mag‘lublikka duchor bo‘lganlar. Shotlandiyaliklar pivoga aralashtirib bergan belladonna ning zaharli sharbati daniyalik askarlarni shol qilib qo‘ygan.

Qadim zamonlarda kishilarning bilim darajasi yetarli bo‘lmaganligi tufayli o‘simliklar ularga sehri va fusunkor bo‘lib ko‘ringan. Xazinalar yashiringan joyni topib beradigan, es – hushni olib qo‘yadigan, sevmaganni sevdirdigan o‘tlar borligiga ishonganlar. Odamchalarga o‘xshash jenshen va mehriyoh ildizi haqida ko‘pdan-ko‘p afsonalar to‘qilgan. Jenshen ildizining kuchsizlanib, holdan toygan kishilarga quvvat bag‘ishlashi, albatta, mo‘jiza deb bilingan. Vaqtlar o‘tishi bilan ilm va fan muayyan o‘simliklikning qanday qilib davo bo‘lishini tushuntirib berdi, afsonaviy gaplar esa, o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketdi.

Dorivor o‘simliklarning shifobaxshligi — ular tarkibida ma’lum ta’sir qiluvchi kimyoviy moddalar: alkaloidlar, flavonoidlar, glikozinlar, vitaminlar, oshlovchi moddalar va boshqalar borligidadir.

Ko‘pgina shifobaxsh o‘simliklar tibbiyotda qo‘llaniladi va hozirgi kunda ham kishilar o‘simliklarning kimyoviy tarkibini mukammal o‘rganishga erishdilar. Bu esa o‘z navbatida yangi – yangi kashfiyotlarga olib keldi. Hozirgi kunda mog‘or zamburug‘i deb ataladigan zamburug‘dan penitsillin dorisi tayyorlanmoqda.

Ba’zi dorivor o‘simliklar, masalan, yalpiz plantatsiyalarda ko‘paytirilmoqda; tishini yuvishdan erinmaydigan har bir kishi yalpiz moyidan har kuni bahramand bo‘ladi. Yalpiz moyining asosiy qismini tashkil etgan modda – mentol tish poroshogini xushbo‘y qiladi. Mentol validol va boshqa yurak kasalligi

dorilari, tinchlantiruvchi dorilarga, kosmonavtlarning ovqatlanish ratsioniga kiradigan yalpizli karamelga ham qo‘shiladi.

Xitoy hududi florasi yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarga ham boy. O‘rmonlarda marvaridgul o‘sadi, undan yurak kasalligi bilan og‘riganlarga dori tayyorlanadi, o‘rmon etagi va nam o‘tloq yerlarda o‘sadigan valeriana o‘simligidan tinchlantiruvchi dori ishlanadi. O‘tloq yerlarda har qadamda dalachoy (uni xalq orasida 95 dardga davo bo‘ladi deyishadi), bo‘yimodaron, ko‘ko‘t, gazako‘t, qora andiz va boshqa dorivor o‘simliklar o‘sib yotadi.

Dorivor o‘simliklarning organizmga ta‘siri ularning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog‘liq. Bu birikmalar o‘simliklarning qismlarida turli miqdorda to‘planadi. Dori tayyorlash uchun o‘simlikning kerakli qismlari turli muddatlarda yig‘iladi, masalan, po‘stlog‘i, kurtagi erta bahorda, bargi o‘simlik gullashi oldidan yoki gullaganda, meva va urug‘lari pishganda, ildiz, ildizpoyasi bahorda yoki kech kuzda olinadi.

Dorivor o‘simliklar havo ochiq paytida, shudring ko‘tarilgach yig‘ib olinadi. Shuni esda tutish kerakki, ko‘pchilik o‘simliklarning tarkibida zaharli moddalar bo‘ladi. Bunday dorivor o‘simliklardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar biroz ortiqroq bo‘lsa ham kuchli zaharlaydi yoki turli kasalliklarga yo‘liqtiradi. Adonis, angishvonagul, bangidevona, belladonna, issiriq, kuchala, marvaridgul, mingbosh, mingdevona va boshqalar shunday zaharli dorivor o‘simliklar jumlasidandir. Shuning uchun o‘simliklarni og‘izga olmaslik, shuningdek ularni yig‘ib olayotgan paytda qo‘lni ko‘zga urmaslik kerak. O‘simliklarni yig‘ib olgandan keyin qo‘lni yaxshilab yuvish lozim. Ifloslangan va kasallangan o‘simliklarni yig‘maslik kerak. Dorixonada sizga qaysi o‘simlikni qaysi paytda qanday qilib olish haqida batafsil tushuntirib berishadi. Dorivor o‘simliklarni yig‘ib olishda ular kelajakda ham o‘sib ko‘payishi uchun bir qismini qoldirish zarur. Bolalar, odamlarning dardiga davo bo‘ladigan dorivor o‘simliklarni yig‘ib olishda sizlar ham o‘z hissalarinizi qo‘shishingiz mumkin.

## 胡荽 [húsū] Kashnich

Ushbu o‘simlik nomiga xitoy tilida quyidagicha ta’rif beriladi:

植物名。伞形科胡荽属，一年生草本。原产地中海沿岸，有强烈气味，高三十至六十公分。茎直立、有条纹、中空；叶为羽状复叶、细裂有锯齿；花细、簇聚如伞、实圆无翅。供食用、调味佐料或入药。

亦称为香菜」。

Soyabon guldoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘simliklar turkumi, efir moyli va ko‘kat – sabzavot ekini. O‘rta dengiz atroflarida 2 turi, O‘rta Osiyoda 1 turi – ekma Kashnich (*C.sativum*) o‘sadi. Yevropa, Shim. Afrika, Osiyo, Shim. Amerika, mamlakatlarida, Ukraina, Rossiyaning markaziy qoratuproq viloyatlarida xo‘jalik maqsadlarida ekiladi. Urug‘idan yetishtiriladi. Kashnich poyasi qirrali, sershox, barglari uzun bandli. Gullari oq yoki pushti; soyabonlarga to‘plangan. Mevasi yumaloq. Bir urug‘i ochilmaydigan ikki mevachadan iborat. Sovuqqa chidamli. Erta bahordan kech kuzgacha ekish mumkin. Nihollari 32 – 34 kunda ko‘kat sabzavot holida foydalanishga yaroqli bo‘ladi. Urug‘i 90 – 95 kunda pishadi. 1000 dona urug‘i vazni 5 – 8g. Kashnichning barglarida kaliy tuzlari, oqsillar, vitamin Vr V2, S, R, provitamin A mavjud. Urug‘ida 0,2 – 1,4% efir moyi va 16 – 28% texnik moy bor (parfyumeriya, qandolatchilik, oziqovqat sanoatida ishlatiladi). Kashnich ko‘kati sho‘rva, go‘shli va sabzavotli ovqatlarga, urug‘i va yosh maysalari ziravor sifatida go‘sh sirkalashda ishlatiladi. Souslarga solinganda xushbo‘y ta‘m beradi. Kashnich asalshirali o‘simliklar guruhiga kiradi.

Mazkur so‘z 胡荽 bir morfemadan iborat bo‘lib, kashnich o‘simlik nomini ifodalaydi. O‘g‘zaki nutqda 香菜 nomi bilan han yuritiladi.

## 薄荷 [bòhe] Yalpiz

植物名。唇形科薄荷属，多年生宿根草本。叶对生，具短柄，长椭圆形而尖，边缘有锯齿，叶背有细斑点。夏秋间，叶腋簇生紫色小花，萼端五

裂，花冠淡紫色。其茎叶制成的薄荷油及薄荷脑，一般可为点心、糖果的调味料，并可作为驱风剂、芳香剂。

Farmokologiyada “ field mint, peppermint ” nomlari bilan yuritiladi.

Yalpizning bir necha xil turi bor va ularning barini bir jihat – o‘ziga xos takrorlanmas ifor birlashtirib turadi. Yalpiz tarkibida efir moylari (mentol, menton, pinen, flandren, seniol, yasmin), organik kislotalar, flavonoidlar, karotin, glyukoza, rutin, vitamin S, mineral tuzlar mavjud. Zamonaviy tibbiyotda yalpizning terapevtik xususiyati qadrlanadi. U og‘riq qoldiruvchi, yallig‘lanishga qarshi kurashuvchi, tomirni kengaytiruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Jig‘ildon qaynagashi va qorin dam bo‘lishida yordam beradi, safro haydovchi ta‘sir ko‘rsatadi. Yalpiz, ayniqsa, jigar uchun foydali bo‘lib, ushbu a‘zoni tozalaydi. Agar angina, tumov, bronxit qiynayotgan bo‘lsa, sizga yalpiz yordam beradi: 1 osh qoshiq quritilgan giyoh barglarini olib, ustidan 1 stakan qaynagan suv quyding va 15 daqiqa damlang. So‘ng suzib, ichasiz. Bugungi kunda tarkibida yalpiz bor preparatlar og‘riqlar, spazm va migrenga qarshi ishlatib kelinmoqda. Shuningdek, ko‘pgina tish pastalari va og‘izni chayqashga mo‘ljallangan eliksirlarga yalpiz qo‘shiladi. Bunday eliksirni o‘zingiz tayyorlasangiz ham bo‘ladi. Buning uchun 1 osh qoshiq yalpiz barglari ustidan yarim litr qaynagan suv quydasiz va 3 soat damlaysiz. Og‘zingizni chayqab tursangiz, noxush hiddan xalos bo‘lasiz.

薄荷 ikki morfemadan iborat ushbu termin “ yalpiz ” nomini ifodalaydi.

### **芦荟 [lúhuì] Aloe**

Xitoy tilidagi botanikaga oid manbalarda ushbu o‘simlikka quyidagicha ta‘rif beriladi:

百合科芦荟属。为常绿植物，叶肉质而肥厚，叶缘有锐锯齿。产于热带。从叶中採汁，可以入药。常绿植物，叶子大，长披针形，肉质肥厚。产于地中海沿岸和热带地方，我国华南地区也有。植物体所含液汁可以入药，有催泻、健胃、通经等作用。

Xitoy tabobatida Aloe sharbati shamollashga, mikroblarga qarshi kurashuvchi foydali doridir. U mikroblarga qiron keltiradi. Shu narsa isbotlanganki, aloe sharbati hattoki, stafilokokka, streptokok, difteriya tayoqchalariga qarshi ham kurasha olish xususiyatiga ega. U og‘iz va xalqum jabhasidagi zararkunandalarni bartaraf qiladi. Aloening pastki barglaridan terib oling va bir kecha-kunduzdan oshirmasdan sharbatini olganingiz ma’qul. Imkon boricha har gal yangi sharbat bilan og‘iz chayqashingizni maslahat beraman.

芦荟 bir morfemadan iborat ushbu o‘simlik nomimi lug‘aviy ma’nosi aloe nomini bildaradi.

### 人参 [rénshēn] Jenschin

Xitoy va Janubi Sharqiy Osiyo davlatlarida ushbu o‘simlik qadimdan tabobat sohasida qo‘llanilib keladi, hozirgi kunda farmokologiyada *Panax schinseng* nomi bilan yuritiladi. Og‘zaki nutqda 玉精 atamasi bilan yuritiladi.

Xitoy tilidagi manbalarda unga quyidagicha ta’rif beriladi:

中国的一种草本植物(*Panax schinseng*), 小叶卵形, 花小、淡黄绿色, 伞状花序, 结成鲜红色的浆果. 植物名。五加科人参属, 多年生宿根草本。主根肥大, 形状像人, 故称为「人参」。叶为掌状复叶, 花小色白。果实扁圆形。根和叶都可入药, 有滋补作用。我国东北、韩国、美国、日本为著名产地。种类繁多, 以野生品种最为珍贵, 其色红者称为「血参」。其根亦称为「人参」, 味甘, 微苦。自古即为补血、强壮、兴奋之药。有中枢兴奋、利尿、镇静及驱风的功效或作玉精。

Jenschin Sharqda: «Hayvonlar podshosi – yo‘lbars, o‘simliklar podshosi – jenschin», – degan maqol bor. Yo‘lbars haqiqatan ham «hayvonlar podshosi» ga o‘xshaydi, lekin «o‘simliklar podshosi» juda ham ko‘rimsiz. Uning poyasi nimjon, barglari uzunchoq panjasimon, mevasi mayda va bemaza. Ba’zan odam shakliga o‘xshaydigan ildizi esa etli va yo‘g‘on bo‘ladi. Jenschin yig‘uvchilar Uzoq Sharq

taygalarida juda qimmatbaho bo'lgan jenshen ildizini bir necha oylab izlab yurganlar. Ko'p kishilar taygada halok bo'lardilar, lekin shunga qaramay bu sehrli ildiz – «o'simliklar podshosi» ni qidiruvchilar safi kamaymadi. «Jenshen» so'zi xitoychadan tarjima qilinganda «hayot ildizi» degan ma'noni bildiradi. Jenshenning bunday deb atalishi, ildizining shunchalik qimmat bo'lishi bejiz emas. Jenshenning ildizidan og'ir kasalliklarni davolaydigan dorilar tayyorlanadi. Biroq jenshen juda kam uchraydigan o'simlik, u yil sayin kamayib borardi. Shunda odamlarda jenshenni o'zlari yetishtirishlari mumkin emasmikan, degan fikr paydo bo'ldi. Bu ish osonlikcha amalga oshmadi, lekin odamlar bo'sh kelmadilar, chunki gap minglab bemorlarning hayotini saqlab qolish ustida borardi. Nihoyat odamlar buning uddasidan chiqdilar. Endilikda jenshen ildizini qidirib taygaga borishning hojati yo'q, kishilar uni maxsus jenshenzorlarda yetishtirishni o'rganib oldilar. Bunday jenshenzorlar hozir Uzoq Sharq va O'rta Osiyoda mavjud. Shuningdek, bu o'simlik Shimoliy Kavkazning tog'liq rayonlarida, Ukraina va Moldaviya respublikalarida ham o'stiriladi.

### 加密列 [jiāmìliè] Moychechak

加密列 ikki morfemadan iborat bo'lib, 加密 *quyuq* va 列 *qator* ma'nolarini anglatuvchi ikki so'zdan yasalgan. Xitoy xalq tabobatida moychechak so'zini ifodalaydi.

Moychechak gulining gul savatchalari tarkibida efir moylari, flavon glikozidlar, kumarinlar, karotin, S vitamini, oqsil oshlovchi, achchiq va shilliq, moddalar bor. Ibn Sino ta'riflaganidek, moychecha qizdiruvchi va xiltni etiltiruvchi xususiyatga ega. To'qilmalarning va tomirlarning og'izlarini ochadi, terlatadi. Erituvchi va suyultiruvchi ta'sirga ega. Me'dadagi issiqdan bo'lgan shishni va qotib qolgan qonni eritadi, sovuqdan bo'lgan shishlarni yo'qotadi. Oqma yaralarda foyda qilib, qovjiragan yaralarni ko'chiradi, tuzalishi qiyin yaralarni tozalaydi. Mushak va asab jarohatlarida davo bo'lib, yangi uzilgan guli hidlansa, uxlatadi. Bavosirni davolaydi, qovuq og'rig'iga, taloq qattiqligiga shifo bo'ladi. Shuningdek ko'z og'rig'ida, ko'z nuri xiralashganida, toshmalarda,

qichimada foyda qiladi. Xalq tabobatida moychechak gullaridan tayorlangan dorivor vositalar (qaynatma, damlama, malham, sharbat, yog‘) miya, bosh, tish, quloq, ko‘z, og‘riqlarini, oshqozon-ichak, asab, o‘pka, jigar, buyrak, shamollash va boshqa kasalliklarni davolashda keng qo‘llaniladi.

### 茶藨子 [chábīāozi] Qoraqat

茶藨子 uch morfemadan iborat ushbu so‘z fabobatda *gooseberry* termini bilan yuritiladi. Ushbu termin tarkibidagi birinchi 茶 morfemasi *choy*, 藨 *malina* va 子 suffiksidan yasalgan. Bundan xitoy tilidagi terminlar yasalişhida affiksatsiya usuli bilan ham terminlar yasalişhini ko‘rishimiz mumkin.

Qoraqatdoshlar oilasiga mansub butadir. Ilmiy tilda “*ribes metseri*” deyiladi. Yovvoyi va madaniy holda o‘lkamizda ko‘p uchraydi. Qoraqat xo‘jalik, sanoat va meditsinada ishlatiladi. Mevasi nordon, servitamin bo‘lgani tufayli ishtaha ochadi, tumov, gripp kasalliklarini davolashda yaxshi yordam beradi. Buning uchun shakarga qorilgan mevasidan kuniga 2 – 3 marta bir choy qoshiqdan qo‘shib ichiladi. Kamquvvat toliqqan bemorlarga kuniga bir marta, bir choy qoshiqdan iste‘mol qilish lozim. Me‘da, isitma, qon ketish kasalliklarini davolashda choyga qo‘shib ichiladi. Ichak, buyrak va siydik yo‘llarini tozalashda qoraqat sharbatidan kuniga bir osh qoshiqdan bir marta ichiladi. Tomoq milk tish kasalliklarini davolashda qoraqatdan muntazam ravishda iste‘mol qilish zarur. Revmatiznni davolash uchun bargi qaynatilgan suvda vanna qilinadi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosa: yuqorida o‘rganib chiqqan ma‘lumotlarimizdan quyidagicha xulosalarga kelindi:

Xitoy tilidagi o‘simlik nomlarini anglatuvchi terminlar yasalişhi ham xitoy tilida so‘z yasalişhi qoidalariga to‘liq mos keladi. Daraxt nomlarini ifodalovchi terminlar asosan 树 morfemasi ishtirokida yasalişib, undan oldingi so‘z yoki morfema ushbu daraxtning turini anglatadi.

Bundan tashqari o‘simlik nomlarini ifodalovchi terminlar asosan bir, ikki morfemadan tashkil topadi. Har bir o‘simlik nomining semantikasiga murojaat qilganimizda ushbu o‘simliklar xitoy xalq tabobatida keng qo‘llanilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

## II BOB. Xitoy tilidagi buta va o‘simlik nomlarining leksik semantik tahlili

### 落叶松 [luòyèsōng] tilog‘och

植物名。松科落叶松属，落叶乔木。每逢秋、冬落叶。高约十七至二十公尺，有长枝、短枝。叶子为条形针状，簇生于短枝上。花单性，雌雄同株。球果成熟时呈褐色，表面有鳞片。木质坚硬，能耐湿，可供建筑用。

**Tilog‘och** (*Larix*) — qarag‘aydoshlar oilasiga mansub ignabargli daraxtlar turkumi. 20 ga yaqin turi bor. Yevropa Osiyo va Shim. Amerikada usadi. Bir uyli, ayrim jinsli o‘simlik. Bo‘yi 20—25 m (50 m gacha, diam. 1 m gacha yetadi), barglari qishda to‘kiladi. Ignalari yumshoq, silliq, uzun novdalarda 20—40 tadan spiralsimon joylashgan. Urug‘li qubbalari dumaloq yoki cho‘ziqroq (yoshligida qizg‘ish yoki yashil), kalta novdalar uchida joylashgan. T. ignabarg chiqarishi bilan gullaydi, qubbasi va urug‘lari o‘sha yildayoq kuzda yoki bahorda ekiladi. Ochilgan qubbalari daraxtda 2—3 yilgacha turadi. Urug‘i mayda, qanotchali, shamol yordamida tarqaladi. T. sovuqqa g‘oyat chidamli, joy tanlamaydi, yorug‘sevar. Tog‘ yon bag‘irlarini mustahkamlashda, dala ihota daraxtzorlari hosil qilishda va joylarni ko‘kalamzorlashtirishda T.ning ahamiyati katta. Uning Gmelin yoki dauriya T. (*L. gmeliniia*) va Sibir T. (*L.sibirica*) turlari ko‘p tarqalgan. Yog‘ochi pishiq, mustahkam, qattiq, suv osti inshootlari qurishda; mebel, qog‘oz tayyorlashda ishlatiladi.

### 悬铃木 [xuánlíngmù] chinor

落叶乔木，叶子大，掌状分裂，花淡黄绿色，果穗球形。可以做为行道树，木材供建筑用。也叫法国梧桐。

**Chinor** (*Platanus*) — chinordoshlar oilasiga mansub barg to‘kuvchi o‘simliklar turkumi; 10 turi ma’lum. Shim. Amerika (Kanadadan Meksikagacha), Jan. Sharqiy Yevropa va O‘rta dengizbo‘yi mamlakatlaridan Hindixitoygacha bo‘lgan hududda tarqalgan. Kavkaz, Qrim, O‘rta Osiyoda sharq chinori

(*P.orientalis*), Jan. Ukraina, Qora dengiz sohillari, shuningdek, O'rta Osiyoda Shim. Amerikadan keltirilgan g'arb chinori (*P.occidentalis*) turlari o'stiriladi. Sharq Ch.i yovvoyi holda o'sadi. Shoxshabbasi qalin, bo'yi baland (50 m gacha), tanasi baquvvat (aylanasi 18 m gacha), silindrsimon, po'stlog'i sarg'ishoq. O'zbekistonda manzarali Ch.ning har ikki turi o'sadi. Novdalari va barglari yoshligida tukli, keyinchalik tuklari to'kilib ketadi. Barglari yirik, asosan, 3 (ba'zan 7) bo'lmalı. Mevasi dumaloq, dag'al tukli yong'oqcha, diametri 1,5 sm, meva bandida 2—5 tadan o'rnavatgan, uzoq vaqt to'kilmaydi. Apr.

da gullab, mevasi may—sent. da yetiladi. Ch., ayniqsa, yoshligida tez o'sadi. Qulay sharoitda 2000 yil va undan ham ko'proq yashaydi. Egey dengizidagi Krit o.da tanasi aylanasi 18 m bo'lgan 2300 yillik Ch.lar bor. Surxondaryo, Namangan va Samarqand viloyatlarida 600—800 yoshli Ch.lar uchraydi.

CH. urugini ekib, qalamchasidan va ildiz bachkilaridan ko'paytiriladi. Ch.ning yog'ochi yengil, pishiq, mebel sanoatida qadrlanadi. Uning yog'ochidan o'zbek me'morligida qadimdan foydalanib kelingan.

### 雪松 [xuěsōng] kedr

常绿乔木，主干耸直，侧枝平展轮生，小枝下垂，叶为针形，树冠若塔，故又称为“宝塔松”。为著名观赏植物。

**Kedr** (*Cedrus*) — qarag'aydoshlar oilasiga mansub doim yashil daraxtlar turkumi. Bo'yi 30—50 m gacha, tanasining diametri 40—50 sm gacha (ba'zan 1,5 m gacha) boradi, 4 turi — Livan K.i (Kichik Osiyo tog'larida), kalta ignabargli K. (Kipr orolida), Atlas K.i (Shim. Afrikada) va Himolay K.i (Markaziy Osiyoda) bor. Yog'ochi qizg'ish yoki sarg'ish, xushbo'y. Suv inshootlari qurishda va mebelchilikda ishlatiladi. Kavkaz, Qrim va O'rta Osiyoning jan. qismida Livan, Atlas va Himolay K.lari o'stiriladi. Atlas K.ining ignabargi qisqa — 2,5 sm cha, qubbasi silindrsimon, tuxumsimon (5—7 sm). Himolay K.ining ignabargi ingichka (uz. 2,5—5 sm), qubbasi tuxumsimon (7—10 sm). Livan K.ining ignabargi 15—35 mm, qubbasi bochkasimon (8—10 sm). K. yong'og'idan yog', yog'och qismining

shirasidan skipidar olinadi. Ignabarglaridan lavshaga qarshi konsentrat tayyorlanadi.

### **桦木 [huà mù] Qayin**

植物名。桦木科桦木属，落叶乔木。高约九至十公尺，叶片互生，呈心形或菱形，叶缘有大小不等的锯齿。花小密生，果实是由许多小坚果集合成的圆筒球果。树皮外层色白如雪，内皮淡褐色，且密含油脂，可提炼作润滑剂，木材与树皮可制家具。产于山西、河南、东北地区和朝鲜、日本一带。

Qayin daraxti kurtagi va bargining preparatlari siydik haydovchi dori sifatida qoʻllaniladi. Bundan tashqari, barg avitaminoz kasalliklarida, kurtak preparatlari esa oʻt haydovchi vosita sifatida (xoletsistit va boshqa kasalliklarda) ishlatiladi.

Qayin bargi buyrakning nefroz va nefrit kasalliklarini davolash uchun tavsiya etildi.

Daraxtning qatroni - qora moyi yaralarni davolash uchun qoʻllaniladigan Vishnevskiy suyuq surtmasi, qoʻtir va boshqa teri kasalliklarini davolashda ishlatiladigan Vilkinson surtmasi tarkibiga kiradi. Faollashtirilgan koʻmiri - - karbolen qorin dam bulganda hamda kolit, meʼda shirasining kislotasi koʻpaygan hollarda va zaharlar bilan zaharlanganda qoʻllaniladi.

Qayin daraxti shirasi oʻpka kasalliklari (bronxit, oʻpka sili) ni davolashda ishlatiladi.

Dorivor preparatlari. Qayin kurtagidan damlama va qaynatma, bargidan esa faqat damlama tayyorlanadi. Daraxtdan qatron - Pix liquida Betulae va faollashtirilgan koʻmir- karbolen olinadi.

### **桉树 [ānshù] evkalipt**

**Evkalipt** — mirtadoshlarga mansub doim yashil daraxt yoki butalar turkumi; dorivor oʻsimlik. Avstraliya va uning atrofidagi orollarda 500 dan ortiq turi tarqalgan. Tropik va subtropiklarda koʻp ekiladi (mas, Braziliyada E. ekilgan

maydonlar Avstraliya, Ispaniya, Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari va boshqalardagidan ko‘proq). G‘arbiy Gruziya, Qrim va Ozarbayjonda E.ning sharsimon, kulrang va xivchinsimon turlari o‘stiriladi. Tanasi baquvvat, bal. 80—100 m gacha, shoxshabbasi siyrak. Barglari etli, chekkalari tekis. Gullari oq, ba‘zan ochsarg‘ish va to‘qqizil, ikki jinsli, barg qo‘ltig‘idan chiqib qalqon yoki ro‘vaksimon to‘pgul hosil qiladi, mevasi ko‘p urug‘li ko‘sakcha. E. issiqsevar va namsevar o‘simlik. Unumdor yerlarda yaxshi o‘sadi. 500 yilgacha yashaydi. Barglari yoz davomida teriladi, lekin kuzda terilgan bargi tarkibida tibbiyotda va parfyumeriyada ishlatiladigan efir moyi ko‘p. Quruq bargi tarkibidagi efir moyi miqdori 1,5—3%. E.ning boshqa 20 ga yaqin turi manzarali o‘simlik sifatida hamda yog‘ochi (qurilish va qog‘oz sanoati) uchun o‘stiriladi. E. tez o‘sovchan bo‘lgani tufayli (bir yidda 4—5 m o‘sadi) botqoq yerlarda ekilganda botqoqlarni quritib, tuproq tarkibini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Urug‘idan ko‘paytiriladi.

### 白腊树 [báilàshù] shumtol

**Shumtol** — zaytundoshlarga mansub daraxtlar turkumi. Tabiiy hodda uchraydigan 65 turi ma‘lum. O‘rta Osiyo tog‘lari yon bag‘irlarida va tog‘ daryolari vodiylarida suriya Sh.i, daryo bo‘yi Sh.i va sug‘d Sh.i o‘sadi. O‘rta Osiyoning shahar va qishloqlarida pensilvaniya Sh.i (qora shumtol), oddiy Sh., amerika Sh.i (oq shumtol), bezakli Sh. va nashtarbarg Sh. turlari manzarali daraxt sifatida ekiladi. Sh. yorug‘sevar, qurg‘oqchilikka chidamli o‘simlik. Ko‘klamgi qorasovuqlardan ko‘proq zararlanadi. Daraxtlari 150—350 yil yashaydi, 15—20 yoshida gullaydi. Ildizi baquvvat, yon tomonga keng tarqalgan. Daraxtining bal. 30—50 m, tana aylanasi 1,5 m, shoxshabbalari uzuntuxumsimon. Bargi patsimon murakkab, kuzda to‘kiladi. Gullari chetdan changlanadi. Mevasi uzun, qanotli pista yoki yong‘oqcha, qish davomida daraxtda saqlanadi. Sh. urug‘idan va to‘nka bachkisidan ko‘payadi. Urug‘lari kuzqishda teriladi, bahorda sepiladi. Ko‘chatlarini bir yoshda ko‘chirib ekish mumkin. Himoya o‘rmonlari barpo etishda, park va xiyobonlarni ko‘kalamzorlashtirishda foydalaniladi. Yogochi yog‘ochni qayta ishlash sanoatida ishlatiladi.

## 垂杨 [chuíyáng] majnuntol

柳树的别名。

老残游记. 第二回: 「到了济南府, 进得城来, 家家泉水, 户户垂杨, 比那江南风景觉得更为有趣。」

**Majnuntol** (*Salix babylonica* L.) -toldoshlar oilasiga mansub daraxt. Bo‘yi 8—10 m cha. Poyasi tik, novdalari tuksiz, yaltiroq, uzun va ingichka, egilib o‘sadi. Bir yillik novdalari esa mayin tuk bilan qoplangan. Bargi oddiy, nashtarsimon poyada ketma-ket joylashgan. Guli bir jinsli, to‘pguli kuchalasimon. Mart—aprelda gullaydi, urug‘i tukli. M. manzarali daraxt sifatida ko‘p o‘stiriladi. Novdalaridan savatlar, shisha idishlarning g‘iloflari, har xil mebel anjomlari va b. to‘qiladi. M. qogoz i. ch. va teri oshlashda ham ishlatiladi.

## 枫树 [fēngshù] zarang

植物名。金缕梅科枫香属，落叶大乔木。叶子是单叶，互生，叶片有三个浅裂，边缘有细锯齿，每到秋末，其树叶会变黄、变红，树姿优美，木材可当建筑和制家具的材料。

**Zarang** (*Acer* L.) — zarangdoshlar oilasining bir turkumi. Bargi karamaqarshi joylashgan, tekis qirrali, patsimon murakkab; guli shingil, sarg‘ishko‘kimtir, aktinomorf. Mevasi quruq, qo‘shqanotli, ikki urug‘li, Yevropa, Osiyo, Shim. Afrika, Shim. Va Zarang: 1— to‘pguli; 2—mevasi; 3—bargi. Markaziy Amerika va b. yerlarda 120 ga yaqin turi bor. O‘zbekistonda 14 turi usadi, shundan 9 turi park va xiyobonlarda manzarali o‘simlik sifatida o‘stiriladi. Ikkita yovvoyi turi — *A. turkestanicum* Pax va *A. semenovii* Rgl. Et Herd O‘zbekistonda keng tarqalgan bo‘lib, tog‘larda 2000 m gacha balandlikda ham o‘sadi. 3. cho‘l va adirlarni ko‘kalamzorlashtirish maqsadida ko‘plab ekiladi. Yog‘ochi duradgorlikda ishlatiladi.

## 2.1. Gul nomlari va ularni ifoda etuvchi soʻzlarning semantik tahlili

Gullari turlicha shakl va rangli gulqoʻrgʻon (gulikosa, gultoj), uning ichida oʻrnashgan changchi hamda urugʻiga ega boʻlgan, urugʻlangandan soʻng meva hosil qiladigan oʻsimliklarga **gulli oʻsimliklar** deyiladi. Ular ildiz, poya, baig, gul, meva va urugʻlardan tashkil topgan. Yer yuzidagi gulli oʻsimliklar **533 oila, 13000 turkum** va **250 mingdan ortiq turni** oʻz ichiga olishi aniqlangan. Bu oʻsimliklarning har biri oʻziga xos belgilari bilan bir-biridan farq qiladi. Gulli oʻsimliklarning hammasi ham oʻz hayoti davomida gullab meva tugadi. Oʻsimliklar dunyosi million yillar davomida turlicha iqlim sharoitiga, tuproqqa va namlikka moslashib shakllangan, oʻsganlari, ichki tuzulishi, ajoyib xossalari, xususan, hayotiy shakllari, yirik guli va mevasi, ildizi, salobatli shox-shabbasi, umrboqiyli, hayvonlar singari tirik mavjudotlar bilan oziqlanishi (6-rasm), kelgusi naslni oʻz bagʻrida voyaga yetkazib, mustaqil hayotga yoʻllanma berishi kabi irsiy belgilari bilan necha asrlardan beri odamlarni oʻziga jalb etib keladi.

Har bir oʻsimlik turining oʻziga xos ajoyib xossalari bor. oʻsimliklarning xilma-xilligini aks ettiruvchi misollar juda koʻp. Bularga Seyshel orolidagi oʻn yillar mobaynida pishib yetiladigan, ogʻirligi 25 kg ga yetadigan **seyshel palmasi** yongʻoqlari, tanasida 200 litrgacha suv saqlaydigan **Meksika kaktuslari**, Kanar orollarida 6000 yilgacha umr koʻradigan **ajdar daraxtlari**, Sumatra orolidagi diametri 1 metr ga yetadigan **rafleziya** kabi ulkan gullar misol boʻladi. Bunday ajoyibotlar oʻlkamizdagi oʻsimliklar orasida ham koʻplab topiladi. Masalan, jazirama issiqqa bardosh berib, qum uyumlarida oʻsadigan, barglari arang koʻrinadigan saksovul va qandim, poyasi suv tagida boʻlib, guli suv yuzasida ochiladigan **nilufar**, hasharotlar bilan oziqlanadigan **suv qaroqchisi**, tabiat koʻrki boʻlgan **qizil lola**, **koʻzagul**, **sallagul**, **chinnigul** va **jumagullar** (xolmon), noyob mevali oʻsimliklardan **yongʻoq**, **pista**, **bodom**, **safsanlar**, tabobatimiz gavhari hisoblangan **chakanda**, **isiriq**, **naʼmatak**, **suvqalampir** va boshqalar oʻsimliklar dunyosining ajoyib vakillaridir. Barcha gulli oʻsimliklarda ildiz, poya, barg, gul, meva va urugʻlarni boʻlishi kerak.

Gulning tashqi qavati odatda yashil rangli gulkosachabarglar bilan o'ralgan bo'ladi. Ulardan so'ng rangli gultojbarglar joylashadi. Gulning o'rta qismida changchilar, markazida esa urug'cbi joylashadi. Gulli o'simliklarning xilma-xilligi ekologik sharoitning o'zgarishi bilan bog'liq. Ular million yillar mobaynida o'zgarib, yangi muhitga, sharoitga moslasha borgan. Sharoit o'zgarishi bilan o'simliklarda yangi muhitga xos belgilar paydo bo'lgan va bu belgilar vaqt o'tishi bilan sekin-asta mustahkamlangan (irsiylashgan). Natijada maxsus sharoitlarga moslashgan yangi o'simliklar (turlar, turkumlar, oilalar) paydo bo'lgan. Yangi sharoitga moslasha olmagan o'simliklar yo'qolib ketgan. Gulli o'simliklar bundan 130 million yil avval ochiq urug'li o'simliklarning qadimgi vakillaridan kelib chiqqan va yer yuzida tezlik bilan tarqala boshlagan.

### **紫罗兰 [Zǐluólán] Binafsha**

植物名。十字花科紫罗兰属，多年生草本。高约六十至九十公分，叶厚呈披针形。花紫色，果实甚长，茎的基部作灌木状。原产于南欧及英国，为观赏性植物。花名。十字花科。二年生或多年生草本，全株被灰白色短密的星状毛。叶互生，匙形或长椭圆形，全缘。春季开花，花紫、红、黄或白色，有香气，顶生总状花序；花瓣四片，也有重瓣的。果为长角。原产欧洲南部，各地都有栽培

(Viola), gunafsha — gunafshadoshlarga mansub, ko'p yillik o'tsimon o'simlik, ekiladigan gul. B. Shim. yarim sharning o'rta mintaqalarida tarqalgan. 500 ga yaqin turi ma'lum. O'zbekistonda 14ta yovvoyi, 3 madaniy turi o'stiriladi. Erta bahorda ochiladi. Poyasi yer bag'irlab o'sadi. Gullari yirik, to'q safsar, oq, sariq, havorang, xushbo'y hidli. B. yer tanlamaydi, salqin joylarda, shuningdek qishda berk joylarda ham o'sadi. Asosan, urug'idan, ayrim turlari ildiz poyasini bo'lib ekish bilan ko'paytiriladi. Xushbo'y B. (V. odorata)ning guli (0,04%) va bargi (0,05%)dan efir moyi olinadi. B.ning bu turi Qrimda ko'p ekiladi.

### **锦葵 [jǐnkūi] – gulxayri**

二年生或多年生草本植物，叶子肾脏形，夏天开花，紫红色。供观赏。  
植物名。锦葵科锦葵属，二年或多年生草本。高约一公尺，叶具长柄，互生，呈圆心形或肾形。夏秋间开紫红色花。蒴果扁圆形，可供药用。蜀葵之一种。  
二年生或多年生草本植物。叶子肾脏形，夏天开花，紫红色。供观赏。

Gulxayri o‘simligining tarkibida juda ko‘p foydali moddalar bor .  
Chunonchi gulxayrining ildizida 35 % gacha shilliq moddalar, 37 % gacha kraxmal , 16 % ga yaqin qand, asparagin, betain, pektin, yog‘, 4,9 % atrofida mineral tuzlar mavjud. O‘simlikning barg hamda gullarida 0,02 % ga yaqin qattiq efir moyi, karotin, vitamin C, ildizlardagiga qaraganda ikki marta kam shilliq moddalar bor. Gulxayri qadim zamonlardan beri shifobaxsh o‘simlik sifatida ishlatilib kelinadi. Abu Ali Ibn Sino gulxayri ildizidan, bargidan va urug‘laridan tayyorlangan damlama bilan yo‘tal, qon tupurish, zotiljam va buyrak kasalliklarini davolagan. Buyuk tabib gulxayri ildizi asosida tayyorlangan dori-darmonlarni ko‘krakni yumshatuvchi, balg‘am ko‘chiruvchi omil sifatida tavsiya etgan. Gulxayri gul tojbarglaridan teri, shoyi va jun matolarni bo‘yashda foydalaniladi. Chunki gulxayri gulbarglari o‘zida qizil, zangori hamda binafsharang bera oladigan malvidin pigmentini saqlaysi . Gulxayri ildizidan kleyster tayyorlash, o‘simlikning poya va shoxchalaridan a`lo sifatli qog‘oz hamda arqonlar tayyorlash mumkin. Gulxayri gullari bolarilar uchun yaxshi oziq hisoblanadi . Dorivor gulxayrining ildizini odatda kuzda yoki erta bahorda kavlab olinib , dag‘al ildizpoya va mayda ildizchalardan ajratiladi-da, zudlik bilan suv oqimida yuvib olinadi (ildiz shilliqlanmasligi uchun ). Shundan so‘ng ochiq havoda quritiladi. Uy sharoitida gulxayri ildizidan quyidagicha damlama tayyorlash mumkin: birorta idishga 2 stakan miqdorda qaynatib sovutilgan suv quyiladi va uning ustiga 4 choy qoshiq maydalangan ildizdan solib, 8 soat davomida qo‘yib qo‘yiladi. So‘ngra suzib olib, sharbatiga kuniga 3-4 mahal yarim stakan miqdorda ichiladi.

**玫瑰[花] [méiguì[huā] – atirgul**

玫瑰所开的花。六至八月间开，为单生或数朵聚生，紫红色至白色。短梗，有刺。花托成壶状，外面密生刺，内藏有雌蕊。除观赏外，也可制香水及供药用

**Atirgul** (*Rosa*) — Ra'nodoshlar turkumining xushmanzara o'simlik sifatida ekiladigan bir qancha turiga xalq tomonidan qo'yilgan umumiy nom. Bu turkumning yovvoyi holda o'sadigan turlari xalqda ra'no, na'matak, qirq og'ayni va itburun nomlari bilan ma'lum. Amerika mamlakatlarida keng tarqalgan. Atirgulning Yer yuzida 250 — ZOYU turi, 25 mingdan ortiq navi bor. O'zbekistonda 19 turi, 600 dan ortiq navi o'stiriladi. Bu navlar gulining katta-kichikligi, rangi, hidi, poyada o'rinishi, gullash davri, poyaning tikka yoki ilashib o'sishi kabi xususiyatlari bilan farq qiladi; fasl bo'yi uzluksiz yoki takroriy gullab turadigan va poyasi ilashib o'sadigan xillari ko'proq ekiladi. Atirgul asosan, payvand qilib, parxishlab va qalamchasini ekib ko'paytiriladi. Payvand qilish yo'li bilan ko'paytirishda iyulda terilgan na'matak mevalaridan ajratib olingan urug'lar nam joyda saqlanib, noyab. oxiri — dekabr boshlarida ochiq dalaga sepiladi. Urug'unib chiqqanidan keyin kelasi yili aprel — avg. davomida 4 — 5 marta chopiq qilinadi, 8 — 10 marta sug'oriladi; avgust — sentabr oylarida Atirgul navi kurtaklari na'matakka payvand qilinadi. Kelasi yil erta bahorda payvandtag unga ulangan kurtak yuqorisidan kesib tashlanadi, payvandni bog'lagan chipta bo'shatiladi. Yoz davomida bachki shoxchalar 1 — 2 marta yulib tashlanadi, payvandi gul 15 — 20 sm o'sgach, uning bo'yiga cho'zilishiga va muddati-dan oldin gullashiga yo'l qo'yilmaydi. Buning uchun payvandi gulning uchi kesilib, vaqt-vaqti bilan yon shoxlari qisqartib turiladi. Atirgulni maxsus o'sishni faollashtiruvchi moddalar bilan ishlov berib qalamchalardan ham ko'paytirish mumkin. Atirgul ko'chatlari gulzorlarga kuzda va bahorda o'tqaziladi. Gulzor tuprog'i oldindan 30 — 35 sm chuqurlikda yumshatiladi, 1 m<sup>2</sup> yerga 5—10 kg go'ng solinadi. Ko'chat 70 x 70 sm oraliqda o'tqaziladi. Ko'chat o'tqaziladigan chuqurning kengligi 30 — 40 sm, chuqurligi 40 — 50 sm qilinadi. Yoz davomida gulzor 20 martagacha sug'oriladi, 6 martagacha chopiladi, 2 marta (1m<sup>2</sup> yerga 30

g selitra va 45 g ammoniy sulfat hisobidan) oziqlantiriladi, unshudring kasalligiga qarshi oltingugurt kukuni bilan dorilanadi, begona oʻtlardan xoli tutiladi. Kech kuzda novdalar 1 — 2 kurtak qoldirib kesiladi. Baʼzi navlarning gulbarglaridan gulqand, murabbo qilinadi. Oʻzbekiston sharoitida Atirgul ochiq yerlarda apreldan noyabrning oxirigacha ochilib turadi, issikxonalarda yil boʻyi gul olish mumkin. Atirgul shaklidagi bezak, amaliy bezak sanʼatida keng qoʻllanadi. Atirgul kashtachilik (jumladan, *doʻppi-doʻzlik*)da milliy iroqi usuli bilan tikib, zargarlik (bilaguzuk yuziga), miskarlik (mis idishlar bezagi)da oʻyib va boshqa usulda yaratiladi.

### 茉莉 [mòli] Jasmin

植物名。木犀科素馨属，半落叶性且为蔓性灌木。其茎柔枝繁，叶阔卵形或阔卵圆形，对生。初夏开白花，称为「茉莉花」，单瓣或重瓣，呈椭圆形，清香袭人，可作香水或茶种香料。

植物名。常绿灌木。木犀科。夏季开白花，有浓香。花可薰制茶叶，又为提取芳香油的原料。亦指这种植物的花。

Jasmin (*Jasminum*) — zaytundoshlarning bir turkumi. Tropik va subtropik oʻlkalarda 200 ga yaqin turi bor. Shulardan 2 turi dorivor (*J. Offi cinall* — Gruziyada va *J. fruticans* — Kopetdogʻda) yovvoyi holda oʻsadi. Abxaziyada yirik gulli Yo. (*Jasminum grandifl orum* L.) ekiladi, gulidan parfyumeriya sanoatida qimmatli efir moyi olinadi (yangi terilgan gulida 0,1% gacha efir moyi bor), choyga xushboʻy hid berish uchun ishlatiladi. Oʻzbekistonda Yo. (*J. fruticans*) manzarali oʻsimlik sifatida (1,2x0,75 yoki 1x1 m sxemada) ekiladi. Yo. ekilgan maydonlardan 20—25 yil gul olish mumkin. Boʻyi 100—150 sm, barglari oddiy yoki 3 boʻlakli, ustki bargchalari kuraksimon. Kosachasi qoʻngʻir, bigizsimon, uzun boʻlaklarga boʻlingan. Guli sariq. May oyida qiygʻos gullaydi.

### 水仙 [shuǐxiān] nargis

植物名。石蒜科水仙属，多年生草本。底部的鳞茎略呈卵状，外皮黑色，下端有白色须根。叶丛生，狭长呈线状，质厚，带白绿色。冬末春初时开花，花色白，有香味。通常生长于暖地的河边，或栽培于庭园。

亦称为

**Nargis**, narsiss (Narcissus L.) — chuchmomadoshlar oilasiga mansub o‘tlar turkumi. Piyozboshi kup yillik. Bargi nashtarsimon. Guli, odatda, sariq yoki oq, yakka yoki gulband uchida bir nechtadan joylashgan. Gulko‘rg‘oni silindrsimon nayli, qo‘ng‘iroqsimon yoki ko-sachasimon tojli. Mevasi etli ko‘sakcha. Ko‘pincha, O‘rta dengiz r-nlarida usa-digan 30 ga yaqin (boshqa ma‘lumotga ko‘ra 60 tacha) turi bor. O‘zbekistonda 2 ta turi uchraydi: N. pseudonarcissus L. — soxta yoki sariq N., gulqo‘rg‘on barglari oq. Bachki (soxta) toji sariq, chin tojbarglariga nisbatan ancha qisqa. N. poeticus L. — nafis yoki oq N. Har ikkala turi ko‘p yillik, piyozli, manzarali usimlik hisoblanib, aprel oyida gullaydi. Ba‘zi turlarining gullarida xushbo‘y efir moyi, piyozboshida alkaloidlar mavjud.

### 唐菖蒲 [tángchāngpú] gladiolus

多年生草本植物，地下球茎扁圆形，叶子剑形，穗状花序，花大，红色或红黄色。结蒴果，长圆形。供观赏。原产南非洲。也叫剑兰。植物名。鸢尾科唐菖蒲属，多年生草本球根花卉。叶形雍容如兰，故俗称为「剑兰」或「福兰」。花色极多，有黄色、红色、粉色、白色、紫色、橙色……等，少数品种具斑纹或镶边。为穗状花序。国内所产花卉八大金钗之一。即菖兰。鸢尾科。多年生草本植物，地下球茎为圆形，叶子剑形，全年开花，穗状花序，有红、黄、棕、蓝、紫、白等色。我国各地广泛栽植。球茎繁殖。供观赏。

**Gladiolus** (Gladiolus L.) — savsarguldoshlar (savsargullilar oilasi)ga mansub tuganak piyozli ko‘p yillik, manzarali o‘simlik. 200 ga yaqin turi bor. O‘rta Osiyoda 3 turi o‘stiriladi. Ekma G.ning 8 mingga yaqin navi bor. Poyasi tik,

deyarli shoxlamaydi, bo'yi 40—200 sm. Bargi qilichsimon, poyada ikki qator bo'lib joylashadi. Guli karnay shaklida, sal qo'sh labli va bukilgan naysimon, 20 sm keladi. Gullari poya uchida bir qator, ba'zan ikki qator o'rnashadi (gul poyasidagi gullarning soni 25 tagacha bo'ladi). Mart—apr.da ekiladi, iyundan avg .gacha (yanv.—fev.da tuvaklarga o'tqazilgani apr,—mayda) ochiladi. Ertagisi 80, kechkisi 90 kunda ochiladi. G. ekiladigan yer kuzda 35— 40 sm chuqurlikda haydalib, gektariga 80—100 t go'ng yoki kompost, 250— 300 kg fosforli, 120—150 kg kaliyli o'g'it, bahorda ekish vaktida 250— 300 kg azotli o'g'it solinadi. Kuzda tuganakpiyozi po'stidan tozalanib, sovuq suvda yuvib quritiladi, so'ngra yerto'lada 4—5° haroratda saqlanadi. O'zbekistonda G.ning Kanada (Kanadu), Minerva (Minera), Monsoyer (Monsouer), Pikardi (Picardi) navlari o'stiriladi.

## **2.2. Xitoy o'simliklarining simvolikasi**

Simvollar semantikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, biz quyidagi manbalarga murojaat qilamiz:

Chavannas E. The five happinesses: Symbolizm in in Chinese popular Art, Fang J.P. Symbols and Rebuses in Chinese Art, Imperial Tombs of the Mong and Qing Dynasties.

O'zining tasnifiga ko'ra xitoy simvolikasi juda turli tumandir. Turli hildagi xitoy simvolikasi orasida o'simliklar simvolikasi asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu guruhga oid simvollar o'zining tarqalishi va qo'llanilishiga ko'ra ikkinchi o'rinda turadi. Ushbu simvollar zoomorf, antropomorf va geometrik simvollar bilan birga qo'shilib ketadi. Xitoyliklarning kundalik turmushida o'simliklar simvolikasi badiiy va amaliy dekorativ san'atining ajralmas qismi hisoblanadi.

O'simliklar simvolikasiga o'zining tashqi ko'rinishiga ko'ra o'simlik shaklini eslatuvchi simvollar kiritiladi.

O'simlik simvollariga gullar, daraxtlar, sabzavotlar, mevalar, boshqoli o'simliklar, qo'ziqorinlar kirib, ular quyidagi o'simliklardir: o'rik, azaliya o'simligi, aloe o'simligi, amarant, ananas, apelsin, astra, bambuk daraxti, uzum,

chinnigul, anor, boqiy umr qo‘ziqorini, nok, pul daraxti, ginko daraxti kabi o‘simlik va daraxtlar kiradi.

O‘zining xususiyatlari va semantik ma’nolarining kengligi nuqtai nazaridan simvolar quyidagicha tavsiflanadi: o‘simlik nomi, tashqi ko‘rinishi, o‘simlik o‘sadigan hudud, jinsi va boqa simvol guruhlari bilan o‘zaro aloqasi, Xitoy madaniyatida ushbu obrazning qo‘llanilishiga ko‘ra.

Ye.M. Kvarsova o‘zining “ Istoriya iskusstva Kitaya ” nomli risolasida daraxtlarni abadiy ko‘k va serbarg daraxtlarga va shuningdek, “ ayol ” va “ erkak ” jinslariga ajratadi<sup>8</sup>. Abadiy yashil bargli daraxtlar sirasiga qarag‘ay daraxti kiradi. Tog‘ yonbag‘irlarida, eng qiyin sharoitlarda qarag‘ay daraxti tanholikda o‘sadi. Ushbu holat uning o‘ta chdamli va matonatli daraxt ekanligidan dalolatdir. Shunga ko‘ra qarag‘ay daraxtining simvolikasi ham serqirra bo‘lib, abadiy hayot, manguлик ramzini ifodalaydi. Ushbu simvolika konfusiyluk ta’limoti va dao ta’limotlarida shaxsning ichki barqarorlik va hotirjamligi simvoli sifatida e’tirof etiladi. Qarag‘ay daraxtining simvolikasi bilan bir qatorda kiparis daraxti ham bir hil mavqega egadir. Bundan tashqari ushbu ikki daraxt xitoy xalq tabobatida keng qo‘llaniladi.

Ushbu ikki abadiy yashil daraxt simvollari sifatida bambuk daraxti ham e’tirof etiladi. Xitoy simvolikasida bambuk daraxti turli baloi ofatlarga qarshi kurash, ofatlarni daf qilish timsoli sifatida qabul qilingan. Xitoyda ushbu daraxtga oid rivoyat bor. Rivoyat qilishlaricha, qadimda bir ayol kasal yotib qolib, o‘g‘lidan yangi bambuk daraxtidan tayyorlangan sho‘rva ichgisi kelayotganini aytadi. Mehribon o‘g‘il shunchalik kuyunganidan bambuk o‘sadigan joyda achchiq ko‘z yosh to‘kadi. Natijada bambuk daraxti qishdan so‘ng qatqaloq bo‘lib ketgan yer maydonida o‘sib chiqadi va o‘g‘il onasiga darmon sho‘rvasini tayyorlab beradi.

Gullab o‘suvchi yovvoyi olxo‘ri 梅花 *meihua* daraxti xitoy simvolikasida kalendar daraxt nomi bilan mashhurdir. Ushbu daraxt xitoy Yangi yili, bahor va butun bir jonzotning tug‘ilishi simvolini ifodalaydi. 梅花 *meihua* daraxti gullari

---

<sup>8</sup> Кварцова Е.М. Истоия искусства Китая. Санкт Петербург. 2004 г.,

xitoy “ Xitoy gullari qirolichasi ” nomi bilan yuritiladi. 梅花 *meihua* nomidagi birinchi morfema “ go‘zal 美 ” va “ qosh 眉 ” so‘zlari bilan omonim hisoblanadi va ayol go‘zalligiga ta’rif berishda ushbu o‘xshatish keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari 梅花 *meihua* daraxti gullari xitoy amaliy san’ati naqshlarida, sopol buyumlarida, kashtachilik san’atida va zargarlik san’atida ham qo‘llanilishi keng rus olgan. Bundan tashqari xitoy amaliy san’atida 梅花 *meihua* janri ham mavjud.

Bundan tashqari xitoyda ayol go‘zalligini ta’rif etishda nok 梨 *li* daraxti simbolikasi ham alohida o‘rin tutadi.

M.E.Kravsovaning ta’kidlashicha “ ayol ” va “ erkak ” o‘simliklar o‘zining xavsifiga ko‘ra ajratiladi. Ya’ni, po‘sti qalin va dag‘al o‘simliklar asosan “ erkak ” jinsini ta’riflashda, unga o‘zgacha salobat va mag‘rurlik bag‘ishlashda asosiy simvol sifatida qo‘llaniladi. “ Ayol ” o‘simliklar esa aksincha, nafis va yumshorq tuzilishga ega bo‘lgan va asosan ayollarning latofati, go‘zalligini ta’riflashda simbolikaga egadir.

“ Erkak ” daraxtlariga: qarag‘ay, kiparis, bambuk va terak daraxtlari kiritiladi. “ Ayol ” daraxtlarga esa nok, olxo‘ri va “ yig‘lovchi majnuntol ” daraxtlari kiritilgan.

Gullar simbolikasida asosiy o‘rinni pion gullar, xrizantema, orxideya va nilufar gullar kiradi.

Xitoy tilida pion gullarining ikki turi mavjud bo‘lib, oq pion 芍药 *shaoyao* va daraxtsimon pion 牡丹 *mudan* mavjud. Badiiy adabiyot simbolikasida har ikki turi ham alohida ajratilmaydi va bir hilda qo‘llaniladi. Ushbu gul xitoy simbolikasida “ boylik, ziyolilik ” ramzidir.

兰 *lan* orxideya va 菊 *ju* xrizantema gullari ham alohida o‘ringa egadir. Qadimgi xitoy mifologiyasida ushbu ikki gul ilohiy dunyo va marosimlar simbolikasini ifodalagan. Orxideya gullari o‘zining hushbo‘y isi tufayli qadimda

saroy malikalari xonalarini bezashda va ayol go‘zalligi timsoli sifatida e’tirof etiladi.

Xrizantema guli o‘zining umrboqiylik ramzi sifatida xitoy mifologiyasida keng ta’riflangan.

Nilufar gul 荷花 xitoy simvolikasida alohida o‘ringa ega bo‘lib, xitoy adabiyotida “ Suvdagi liliya ” nomi bilan ham yuritiladi. Xitoy simvolikasida nilufar gul urug‘i “ 莲子 *lianzi* ” so‘zi bilan ifodalanib, xitoy tilidagi “ ketma ket o‘g‘il tug‘ilishi 连子 so‘zi bilan omonimdir. Nilufar gulining avlodlar davomi, erkak jinsining davomi simvoli vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari, nilufar gul tozalik va pokizalik timsoli hamdir. Gullagan davrida nilufar gullar botqoqlikda ko‘tarilib chiqadi va o‘zining go‘zalligida bironta ham botqoq sarqitlarini olib chiqmaydi. 荷 ieroglifi 和 tinchlik ieroglifi bilan omonimdir, ya’ni “ tinchlik ” ma’nosida ham simvolikaga egadir<sup>9</sup>.

Ramziy ma’nolaridan qat’iy nazar, gullar ham xitoy simvolikasida “ ayol ” va “ erkak ” toifalariga ajratiladi. “ Erkak ” gullar sirasiga uzun va qattiqroq teksturali barglarga ega o‘simliklar, “ ayol ” lariga esa nisbatan nafis, serbarg gullar kiritilgan.

O‘simliklar simvolikasiga oid ma’lumotlarni o‘rganishda quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Birinchiidan, Xitoy tilida o‘simliklar simvolikasi asosan konfusiylik, dao va buddaviylik ta’limotlari negizida paydo bo‘lgan;

Ikkinchiidan sintagmatik qatorlarda o‘simliklar simvolikasi o‘ziga xos o‘simliklar bilan uyg‘unlashib ketadi;

---

<sup>9</sup> Кварцова Е.М. Истоия искусства Китая. Санкт Петербург. 2004 г.,

Bir qator simvollar umrboqiylik, go‘zallik va serfarzandlik timsoli sifatida e’tirof etiladi.

## XULOSA

Xitoy tilida o‘simliklar nomlarini anglatadigan so‘zlarning semantic tahlili mavzuda olib borilgan kichik tadqiqotimi bo‘yicha quyidagi xulosalarga keldik:

- Xitoy tilida o‘simliklar nomlari “fitonim” 植物专名 termini bilan yuritiladi.
- Tilshunoslikda ushbu bo‘lim Fitonomiya deb ataladi.
- Hozirgi xitoy tilida o‘simliklarning daraxt, buta, gullar va dorivor o‘simliklar nomlari tahlilga tortildi.
- O‘simliklar nomlarini anglatuvchi terminlar fitonimlarning yasash usullari va semantic tahlili amalga oshirildi.
- Fitonimlar yasalishi ham xitoy tilida so‘z yasalishi qoidalariga to‘liq mos keladi.
- O‘simlik nomlari asosan bir va ikki bo‘ginli morfemadan tashkil topgan. Ikki bo‘ginli va bir bo‘g‘inli morfemalar “monosemantik” ma’noga ega.
- O‘simliklar barcha millatlarda bo‘lgani kabi xitoy madaniyatida ham simvolikaga egadir.
- Xitoy tilida o‘simliklar simvolikasi chuqur tarixga ega bo‘lib, o‘simlik turlari “ayol” va “erkak” toifalariga ajratiladi.
- Avlodlar davomi simvolik timsoli sifatida 莲子 ya’ni nilufar gul urug‘lari ifodalasa, “ayol” go‘zalligini “orxideya guli” timsolida ta’riflanadi.
- “Erkak” ning timsolini ifodalashda “qayrag‘och daraxti” timsolida ifodalanadi. Bundan tashqari xitoy simvolikasida o‘simliklar bilan ifoda etadigan timsollar juda ko‘pchilikni tashkil etadi.
- Gullari turlicha shakl va rangli gulqo‘rg‘on (gulikosa, gultoj), uning ichida o‘rnashgan changchi hamda urug‘iga ega bo‘lgan, urug‘langandan so‘ng meva hosil qiladigan o‘simliklarga gulli o‘simliklar deyiladi. Ular ildiz, poya, baig, gul, meva va urug‘lardan

tashkil topgan. Yer yuzidagi gulli o‘simliklar 533 oila, 13000 turkum va 250 mingdan ortiq turni o‘z ichiga olishi aniqlangan.

- Xitoy tilidagi o‘simlik nomlarini anglatuvchi terminlar yasalishi ham xitoy tilida so‘z yasalishi qoidalariga to‘liq mos keladi. Daraxt nomlarini ifodalovchi terminlar asosan 树 morfemasi ishtirokida yasalib, undan oldingi so‘z yoki morfema ushbu daraxtning turini anglatadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent.:“ O‘zbekiston ”, 1995 y.

#### **Asosiy adabiyotlar va manbalar:**

##### **O`zbek tilidagi adabiyotlar:**

2. Karimov A.A. Xitoy tilining asosiy grammatik birliklari. Toshkent., 2001 y.

##### **Rus tilidagi adabiyotlar:**

3. Dragunov A.A. Issledovaniya po grammatike sovremennogo kitayskogo yazika .- Moskva., 1952 .
4. Polivanov Ye.D. Grammatika sovremennogo kitayskogo yazika . Moskva Institut Vostokovedniya.
5. Semenas A.L. Kopulyativniy tip svyazi v leksike sovremennogo kitayskogo yazika . -Moskva .,1973.
6. Semenas A.L. Leksika kitayskogo yazika .- Moskva.
7. Frolova O.P. Slovoobrazovanie v terminologicheskoy leksike sovremennogo kitayskogo yazika.- Novosibirsk : “ Nauka ” , 1981.
8. Xamatova A.A. Slovoobrazovanie sovremennogo kitayskogo yazika .- Vladivostok: “ Izd – vo Dalnevost ”, 1988 .

##### **Xitoy tilidagi adabiyotlar:**

9. 夏伟瑛. 植物名译论集.北京., 1990 年.
- 10.朱家冉.拉汉英种子植物名.北京., 1983 年.
- 11.马其云.中国种子植物名称总汇.青岛., 2003 年.

##### **Lug`atlar:**

- 12.汉乌俄医学 小词典. Sultanova L.A. Toshkent.,2012.
- 13.«现代汉俄词典», 外研社 1986 年版.
- 14.«世纪俄语新词新义词典», 外文出版社 2002 年.

15. «现代汉语词典».上海印书馆, 2008 年版.

16. «汉俄词典».商务印书馆, 2008 年版.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

17. Fang J. P. Symbols and Rebuses in Chinese Art: Figures, Bugs, Beasts and Flowers. Hong Kong: Ten Speed Press, 2004. – 243 p.

18. Анненков Н. И. Ботанический словарь. М., 1878.

19. Губанов И. А. Лекарственные растения: Справ. М., 1993.

20. Даниленко В. П. Терминология и культура речи. М., 1981. С. 63-64.

21. Меркулова В. А. Очерки по русской народной номенклатуре растений. М., 1967.

22. Скляр евская Г. Н. Метафора в системе языка. СПб., 1993. С. 6.

23. Минский М. Остроумие и логика когнитивного бессознательного // Новое в зарубежной лингвистике. М., 1998. С. 281.

24. Станков С. С., Талиев В. И. Определитель высших растений европейской части СССР. М., 1949.

25. Шпис - Чулум. Фитонимија југозападне Бачке (коровскафлора). СДЗб., 1995. XLI. С. 397–490.

26. 高明乾. 植物古汉图名考. 青岛, 2006 (Гао Миньцян  
. Исследование древних названий растений. Циндао, 2006).

27. 李时珍. 本草纲目. 北京, 1999 (Ли Шичжэнь. Основные положения фармакологии. Пекин, 1999).

28. 夏玮瑛. 植物名释札记. 北京, 1990 (Ся Вэйин. Очерки по китайской номенклатуре растений. Пекин, 1990).

29. 朱家冉. 拉汉英种子植物名称. 北京, 1983 (Чжу Цзяжань. Названия семейных растений на латинском, китайском и английском языках. Пекин, 1983).

30. 马其云. 中国种子植物名称总汇. 青岛, 2003 (Ма Ци ю н ь . Названия семейных растений в Китае. Циндао, 2003). Поступила в редакцию 27.10.07.
31. Ян Жуй – аспирант кафедры русского языка. Научный руководитель – доктор филологических наук, профессор И.Э. Ратникова.

**Internet sahifalari:**

32. [www.nigma.ru](http://www.nigma.ru)
33. [www.baidu.com](http://www.baidu.com)
34. [www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru)
35. [www.shifo.uz](http://www.shifo.uz)
36. [www.zhongwen.cn](http://www.zhongwen.cn)